XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI UZUN TUMANI KENGASHINING QARORI

Uzuntumani,O‘zbekistonko‘chasi 7-uy. tel.: (+99876)44-73-545, uzun.t@exat.uz

2021 - yil 11 - dekabr VI-34-61-8-118-K/21 Uzun tuman hokimligi

Tumanidagi Yangi ro‘zg‘or mahallasi va Fayzova mahallasi hududiy chegarasini o‘zgartirish va yangi mahallalarni tashkil etish to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi va “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek, ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 48-son qarori, Uzun tuman hokimi va Uzun tumanidagi mahalla fuqarolar yig‘inining hududiy chegarasini o‘zgartirish va yangi mahallalarni tashkil etish to‘g‘risidagi takliflariga asosan xalq deputatlari Uzun tuman Kengashi **qaror qiladi**

1. Uzun tumanidagi Yangi ro‘zg‘or mahallasi va Fayzova mahallasi hududiy chegarasini o‘zgartirish va yangi mahallalarni tashkil etish to‘g‘risidagi Geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining 2021 yil 5 iyundagi 17-sonli bayonnomasi hamda 2021 yil 7 iyundagi 18-sonli bayoni, Uzun tuman hokimi va Yangi ro‘zg‘or hamda Fayzova mahalla fuqarolar yig‘ini tomonidan berilgan takliflar ma’qullansin.

2. Uzun tumanidagi Yangi ro‘zg‘or mahallasi va Fayzova mahallasi hududiy chegarasini qayta ko‘rib chiqish hisobiga yangi tashkil etilayotgan mahallalar ro‘yxati hamda ularning nomlari 1-ilovaga, yangi tashkil etilayotgan mahallalar chegaralari va tavsifi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tumandagi mahalla fuqarolar yig‘inlari soni 51 ta deb yuritilsin.

4. Tuman hokimi o‘rinbosari – mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (D.Safarova), Uzun tuman hokimligi:

Yangi tashkil etilgan mahallalarning to‘liq shakllanishi va faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratsin;

Hududlarga o‘zgartirish kiritilgan mahalla fuqarolar yig‘ini aholisi o‘rtasida tushuntirish ishlari olib borilsin.

5. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (B.Hasanov), tuman moliya bo‘limi (B.Baratov) yangi tashkil etilgan mahalla fuqarolar yig‘ini xodimlari mehnatiga haq to‘lash uchun zarur mablag‘larni mahalliy budjetdan belgilangan tartibda ajratish choralarini ko‘rsin.

6. “Bobotog‘ tongi” gazetasi tahririyati (I.Bobokalonov), tuman hokimligi axborot xizmati rahbari matbuot kotibi (lavozimiga ko‘ra) mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishini ta’minlasin.

7. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan so‘ng kuchga kiradi.

8. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Axborot siyosati va mahalliy davlat organlarida ochiqlikni ta’minlash masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi S.Rajabova va tuman hokimi o‘rinbosari – mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i D.Safarova zimmasiga yuklatilsin.

Hokim **Tursunov B. B.**

Халқ депутатлари Узун туман
Кенгашининг
2021 йил 11 декабрдаги
VI-34-61-8-118-K/21-сон қарорига
1-илова

Uzun tumanidagi Yangi ro‘zg‘or mahallasi va Fayzova mahallasining hududiy chegaralarini qayta ko‘rib chiqish hisobiga yangi tashkil etilayotgan mahallalar ro‘yxati va ularning nomlari

T/r	Bo‘linadigan mahallaning nomi	Bo‘lish hisobiga yangi tashkil etilgan mahallalar nomi	Izoh
1.	Yangi ro‘zg‘or mahallasi	Yangi ro‘zg‘or mahallasi	
2.		Ittifoq mahallasi	
3.	Fayzova mahallasi	Fayzova mahallasi	
4.		Do‘rmon mahallasi	

Халқ депутатлари Узун туман
Кенгашининг
2021 йил 11 декабрдаги
VI-34-61-8-118-K/21-сон қарорига
2-илова

Yangi tashkil etilayotgan mahallalar chegaralari va tavsifi

Ittifoq mahallasi

Markazi: Ittifoq ko‘chasi

Aholi: 2836 ta

Oila: 1004 ta

Xonadon 515

Chegarasi: 129,26 га

Do‘rmon mahallasi

Markazi: O‘zbekiston ko‘chasi

Aholi: 3650 ta

Oila: 804 ta

Xonadon 592

Chegarasi: 301,64 га